


ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

Nocturne No. 20 in C Sharp Minor, Op. posth

Frédéric François Chopin

Vincent

**FRIDERIK SHOPEN**  
(1810-1849)**NOYABR**  
**№46**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
3-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-3**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 46-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Каҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масбулдири.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР**

<b>1. Sapayeva Asal Rustamboyevna, Aminova Dilfuza Bozorboy qizi</b>	
BUYUK IPAK YO'LIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR .....	7
<b>2. Юсупов Ҳамидбек Султанович</b>	
ШЕРФОЗИХОН МАДРАСАСИ ТАРИХИ .....	9



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

### BUYUK IPAК YO'LIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR

**Sapayeva Asal Rustamboyevna**

Xorazm viloyati Gurlan tumani

45-maktab tarix fani o'qituvchisi

Telefon: 998(97) 3634390

**Aminova Dilfuza Bozorboy qizi**

Xorazm viloyati Gurlan tumani

26-maktab tarix fani o'qituvchisi

Telefon: 998(93) 2886693

**Annotatsiya:** «Buyuk ipak yo'li» atamasi o'sha davrda G'arb mamlakatlari uchun qimmatbaho bo'lgan mahsulot ipak bilan bog'liq. Ipak qurtining pillalaridan ipak tayyorlash siri qariyb 5 ming yil avval xitoyliklar tomonidan ochilgan deb hisoblanadi. Maqolada Buyuk ipak yo'lida joylashgan davlatlarning diplomatik aloqalari olib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ipak yo'li, xitoyliklar, Chjan Syan, Avesto, Kushon imperiyasi, diplomatik aloqalar, Tovar aylanmasi, samoviy otlar, elchilik aloqalari

O'rta Osiyo davlatlari va mulklari o'rtasidagi diplomatik aloqalarning ilk shakllari yuzaga kelishi haqidagi ma'lumotlar Avesto matnlaridayoq keltirilgan. Buning ustiga, Avestoda ma'bud Mitra qabilalararo shartnomalar tuzish va kelishmovchiliklar hamda harbiy to'qnashuvlarni hal qilishning asosiy kafili sifatida maydonga chiqadi.

Yuechji urug'lardan biri – kushonlar Buyuk Kushon impyeriyanini tashkil qiladilar va aynan yuechjilar xitoyliklarning o'zлari uchun G'arbiy o'lkani kashf qilishlariga bosh sababchi bo'ladilar. Xan impyeriysi o'zining tashkil topish vaqtidan boshlab istilochilik siyosatini yurgizdi. Impyerator U-Di (mill.avv 140 - 86 yy) bu siyosatni faol olib boradi va G'arbiy hududlarga diqqat qaratadi. Bu yerda xitoyliklar qudratli harbiy kuch – xunnlarga to'qnash keladilar. Xunnlarga qarshi kurashda o'zlariga ittifoqchi izlagan xitoyliklar yuechjilarga e'tibor qaratadilar va ular bilan diplomatik aloqalar o'rnatish hamda harbiy ittifoq tuzish uchun Chjan Szyan boshchiligidagi elchilarni yuboradilar. G'arbiy o'lkaning mill.avv 128 yoki 126 yillarda Chjan Szyan tomonidan kashf qilinishi turli shakldagi o'zaro aloqalar, shu jumladan, diplomatik aloqalarning yo'lga qo'yilishiga olib keldi. Dovon - Farg'ona Xitoy bilan aloqalar o'rnatgan ilk mamlakat bo'ladi. Bu aloqalar dastlab juda keskin bo'lgan. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi harbiy to'qnashuvlarning asosiy sabablaridan biri Farg'onaning «samoviy otlari» edi.

To'rt yil davom qilgan birinchi urushda xitoyliklar g'alaba qozondilar va Farg'ona hukmdori Muvgani o'ldirib, uning o'rniqa oksoqollardan birini tayinlaydilar va 3000 bosh otni olib orqaga qaytadilar. Oradan bir yil o'tib dovonliklar yangi tayinlangan hukmdorni qatl qiladilar va uning kichik o'g'li Chanfinni taxtga o'tqazadilar. Chanfin Xitoy bilan sulk shartnomasini tuzadi. Bu Xitoy va O'rta Osiyo mamlakatlaridan biri o'rtasida tuzilgan birinchi shartnoma edi.

Dovon-Xitoy urushi tugagandan keyin Xitoyning G'arbiy o'lkadagi diplomatik faoliyati ja'dal suratda o'sib boradi. «Xan Katta xonadoni tarixi»da yozilishicha, impyerator U - Di davrida har yili O'rta Osyoning turli mamlakatlariga kamida 10 elchilik jo'natib turilgan.

Mill.avv 111-105 yillar oralig'ida Xitoy Parfiya podsholigi (Xitoy manbalarida – An'an) bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Xitoyning Qang'yuy davlati bilan diplomatik aloqalari sal boshqacha tusda shakllandi. Katta harbiy qudratga ega bo'lgan Qang'yuy Xitoydan mustaqil tarzda siyosat olib borgan, diplomatik aloqalarda xitoyliklarning ustunligi tan olmagan. Shunga qaramasdan, Xitoy bunga ko'nikib, nima qilib bo'lsa ham bu yerda o'z mavqeini saqlab turishga harakat qilgan. O'z navbatida Qangyuylar hukmdori ham o'z og'illarini Xitoy imperatori saroyiga xizmat qilish uchun yuborgan. Xitoyliklar buni Qangyuyning Xitoy bilan savdo aloqalarini



rivojlantirishga imkon beruvchi ayyorona baxona, deb hisoblashgan.

Baqtriya va Xitoy o'rtasida, garchi yuechjilar xunnlarga qarshi Xitoy bilan harbiy ittifoq tuzishni harakat qilgan bo'lsalarda, diplomatik aloqalar rivoji davom etgan.

Bu munosabatlarning eng muhim yutuqlaridan biri buddaviylik Xitoyga kirib kelishi bo'ladi. Yuechji elchilarining Xitoy va xitoylik elchilarning Baqtriya tashriflari bunga ancha imkoniyat yaratdi.

Milodiy 7- yilda Xitoyda hokimiyat Vanman (7- 23 yy) qo'liga o'tdi. Bundan keyin O'rta Osiyo mamlakatlari va Xitoy O'rtasidagi diplomatik aloqalar to'xtab qoldi. «Kichik Xan xonadoni tarixi» da yozilishicha, 65 yil mobaynida G'arbiy o'lka Xitoy bilan aloqa o'rnatmadni va faqat 74 yilga kelibgina turli shakldagi o'zaro aloqalar qaytadan o'rnatildi.

O'rta Osiyo mulklerining Xitoy bilan ancha mustahkam diplomatik munosabatlar o'rnatishiga xitoylik lashkarboshi Ban Chaoning G'arbiy o'lkaza yurishi imkoniyat yaratdi. Ban Chao qo'shini butun O'rta Osiyoni bosib o'tib, xatto G'arbiy dengizgacha, aftidan, Kaspiy yoki Orol dengizigacha borgan.

Xitoyda Tsao Vey sulolasasi (220-265 yy), Tszin sulolasasi (265-480 yy) va G'arbiy Vey (386 - 556 yy) sulolasasi hukmronlik qilgan davrda O'rta Osiyo va Xitoy o'rtasidagi diplomatik munosabatlar butunlay tartibsiz holga keldi, bunga ko'p darajada harbiy-siyosiy vaziyat sabab bo'ladi<sup>1</sup>.

Qadimgi dunyoning buyuk impyeriyalari – Kushon va Parfiya parchalanib ketdi, Shimoliy Baqtriyada bir necha mustaqil mulklar tashkil topdi, O'rta Osiyoning janubi-G'arbiy qismida Sosonilar hukmronligi o'rnatildi. Qangyuy ham aftidan, bu davrda ko'plab mayda mustaqil mulklarga bo'linib ketdi. SHimoli-g'arb va shimoli-sharqdan xioniy va kidariy qabilalari bostirib kirdi.

Bu davrda Xitoyda ham beqaror siyosiy vaziyat yuzaga keldi, o'zaro urushlar avj oldi, xunnlar va jujanglar xujumlari kuchaydi. Diqqatga sazovorki, III asrning ikkinchi yarmi – V asrning boshlarida O'rta Osiyo va Xitoy O'rtasida diplomatik aloqalar mavjudligidan darak beruvchi ma'lumotlar deyarli yo'q.

Diplomatik munosabatlarning qayta o'rnatilishi Vay sulolasidan bo'lgan impyerator Pay - U (426 - 452 yy) nomi bilan bog'liq. Uning buyrugi bilan Dun Van va Gao Min boshchiligidida Xitoy elchilar O'rta Osiyoga jo'natildi. Dun Van dastlab Yettisuvda bo'lib, keyin Farg'onaga, Gao Min esa Chochga yo'l oldi.

Xitoya qaytishda Don Van bilan birga O'rta Osiyodagi 16 davlat elchilari ham kelishdi. Shu paytdan boshlab elchilar almashish muntazam tus oldi. Tan sulolasasi (628 - 907 yy) davrida VIII asrning ikkinchi yarmigacha Xitoy va O'rta Osiyo O'rtasidagi diplomatik va boshqa turdagil o'zaro aloqalar oldingi davrlardagidan ham keng tus oldi. Biroq, bu aloqalar arablar bosqinidan keyin uzilib qoldi.

Shunday qilib, O'rta Osiyodagi diplomatiya uzoq va ko'p asrlik an'analarga ega. XVI – asrga qadar Sharq bilan G'arb xalqlari o'rtasidagi tarixiy-madaniy va savdo munosabatlari taraqqiyotida qadimgi dunyoda mashhur bo'lgan Buyuk Ipak yo'li muhim o'r'in tutgan. Bu yo'l miloddan avvalgi II asrda vujudga kelgan va "Buyuk meridional yo'l" dab atalgan. Bu yo'lga "Ipak yo'li" degan nom 1877-yilda nemis geografi F.Rixtgofen tomonidan berilgan.

«Buyuk ipak yo'li» atamasi o'sha davrda G'arb mamlakatlari uchun qimmatbaho bo'lgan mahsulot ipak bilan bog'liq. Ipak qurtining pillalaridan ipak tayyorlash siri qariyb 5 ming yil avval xitoyliklar tomonidan ochilgan deb hisob lanadi. Buyuk Ipak yo'li tashkil topmasdan avval O'rta Osiyo va Qadimgi Sharq hududida savdo va madaniy ayrboshlash uchun turli - tuman yo'llar mavjud bo'lgan. Buyuk Ipak yo'li Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi keng madaniy ayrboshlashga imkon yaratib berdi.

O'rta Osiyo bu yo'lning asosiy tarmoqlari chorrahasida turar edi. Bu erga turli mamlakatlar savdogarlari, hunarmandlari, olim va musiqa bilimdonlari qadam ranjida qilganlar. O'rta Osiyo xalqlari Buyuk Ipak yo'li tufayli Sharq va G'arb mamlakatlari iqtisodiyoti va madaniyati bilan oshno bo'lganlar, G'arb mamlakatlari xalqlari esa O'rta Osiyo xalqlanrining yuksak darajada rivojlangan madaniyatini o'zları uchun kashf qilganlar.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Великий шелковый путь: формирование и развитие. Т. 1999.
2. Горбунова Н.Г. Фергана по сведением античных авторов. М. 1976.

<sup>1</sup> Горбунова Н.Г. Фергана по сведением античных авторов. М., 1976.



## ШЕРҒОЗИХОН МАДРАСАСИ ТАРИХИ

Юсупов Ҳамидбек Султанович  
УРДУ мустақил изланувчи  
Телефон: +998937534056  
hamidyusipov753@gmail.com

**Аннотация.** Мазкур мақолада Шерғозихон мадрасаси тарихи, мадрасага вақф килинган ерлар, мадраса чегараси, худудлари ҳақида маълумотлар акс этган. Шунингдек мадраса мударрислари ва мадрасада бошқа вилоятлардан келган талабаларнинг таълим олиш жараёнлари ҳақида қизиқарли маълумотлар акс этган.

**Калит сўзлар:** таноб, мударрис, мулла, хатиб, шариат, фиқҳ, эшон, охунд, вақф, масжид, сўфий.

Ривоятларга қараганда, Шерғозихон мадрасани Хуросонга муваффақиятли юришидан жуда кўп қуллар олиб келгач қурдирган. Хон мадраса тугалланиши билан қулларга озодлик беришни ваъда этган. Лекин хон мадраса қурилишини жўрттага чўзиб юборган, бундан газабланган қуллар Шерғозихонни ўлдирганлар.

Хиванинг Ичан-Қалья қисмида Шерғозихон томонидан бунёд этилган мадраса кириш дарвозаси ҳамда пештоқи юқорисида мармар тошга насталиқ ҳатида форсийда битилган вақф хайрияси ҳақидаги лавхлар ўрнатилган [1]. Уларнинг биринчисида Шеробод мавзейида жойлашган 3180 таноб ернинг вақф қилингани, мулкнинг чегаралари батафсил назмда баён қилинган. Иккинчи матнда мадрасага тахминан 1600 таноб ер вақф қилингани айтилади.

Мадраса Пахлавон Маҳмуд мақбарасининг жануброғида жойлашган. Мадрасанинг ғарб томонида ёндашган унча катта бўлмаган гумбазли бинони Шерғозихон қабрига килинган мақбара дейишади. Аниқроқ маълумотларни эса ўймакор ёдгорлик лавҳасидан олса бўлади. Лавҳаларга вақфнома чекилган бўлиб, мадрасанинг вақф ерларининг миқдори ва даромаднинг мадраса аҳлларига тақсимланиши ҳақида, интизом қоидалари ва бинонинг қурилиш даврига оид хабарлар бор. 1718-1719-йилларда қурила бошланган мадраса бир йилдан кейин тугалланган. Хива шаҳридаги энг бой хисобланган бу мадраса Шеробод, Хайробод, Пирнавхост, Полвон бобо қишлоқларидағи 1000 таноб ердан ҳар йили жуда кўп буғдой, гуруч ва жўхори ҳосили олинар эди. Бу мадрасага қарашли ерлардан 1800 ботмон буғдой унганлиги кўрсатилади.

Тарихий манбаларнинг маълумот беришича, Шерғозихон мадрасасида XIX аср охирида Муҳаммад Ёқуб охунд эшон, Ҳусайн охунд эшон, Муҳаммад Рафи охунд эшон, Ортиқ охунд эшон каби 45 мударрис олимлар бўлғуси фан етакчиларига сабоқ берганлар, кутубхоначи, сартарош, фаррош ва сувчи лавозимидағи кишилар талабаларнинг хизматида бўлган [2].

Бумадраса, асосан, тиббиётга ихтисослашган. Шунингдек, масжид, мадраса ўқитувчилари, мулла, хатиблар, шариат суди ходимлари тайёрланган. Мадрасада жами 55 хужра мавжуд бўлиб, 100 дан зиёд талаба илм олган.

Бу мадрасада истеъодли шоир Полвонқули Равнақ таълим олган. Шунингдек, бошқа вилоятлардан келган ёшлар ҳам таълим олганлар. Бу мадраса таълимини олган туркман шоири Маҳтумқули, қорақалпоқ шоири Ажиниёз ва қозоқ сўфийси Бекет ота Мирзакули ўғли кейинчалик ўз халқининг севимли шоирлари ва мутафаккирлари бўлиб етишдилар. Бекет ота Мирзакули ўғли 1750 йилда Қозогистоннинг Манғишлиқ вилоятининг Оқмасжид қишлоғида туғилиб, саводини чиқаргач, 1766-1767-йилларда Хивага келади ва Шерғозихон мадрасасида ўқишини давом килдиради. Бу ерда у 7 йил давомида дунёвий билимлар билан бир қаторда фиқҳ илмидан Сайид Муҳаммад Боқирдан таълим олади [3].

Маҳтумқули мадрасани битказиб кетар ҷоғида миннатдорчилик билан шундай деб ёзади:

Макон айлаб уч йил едим тузингни,

Кетар бўлдим, хуш қол, гўзал Шерғози.

Ўтказдим баҳор, қищ, ёзингни

Кетар бўлдим, хуш қол, гўзал Шерғози [4].

Шоир ўзининг шеърларида Хивада ўтган умридан рози эканини эҳтирос билан ифода килган. Маҳтумқули шеърларини таъсир кучи шундаки, у ҳаётдаги ҳақиқат ва адолатни ўз қалбидан ўзгалар қалбига етказа олган:



Кошки одам бу дунёга келмаса,  
Келганидан сўнг умр сўрса, ўлмаса.  
Махтумқули, шукр эт сен худога,  
Ўлим баробардир шоху гадога [5].

Махтумқули бу шеърларини Хивадаги мадрасадан кетмасдан олдин, Халач атрофидаги Кизилоёқ қишлоғидаги Идрисбобо мадрасасида, Бухоронинг Кўкалдош мадрасасида ўқиб, Шерғозихон мадрасасида уч йил таҳсил олиб Андижонга кетиб ўқишни давом қилдириш арафасида ёзган, бу вақтда у 40 ёшдан ошган эди. Мадраса ҳаётини Бухоро мадрасасида ўқиб бошидан кечирган Садриддин Айний айтганидек, “...у замонларда чинакам билимли кишилар шўрхокда унган мевали дараҳтдек камчил эди” [6].

Таниқли қорақалпоқ шоири Ажиниёз ҳам шу мадрасада (1840-1844) 4 йил давомида таълим олган.

Бугунги кунда мадрасада Маҳтумқули, Ажиниёз Қўсибой ўғли, Бекет ота кўргазмалари ташкил қилинган [7].

#### **ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:**

1. Бабаджанов Б., Раҳимов К., Худойберганов К. Ўзбекистон обидаларидаи дурдона битиклар. Хива. III. Биринчи китоб. –Тошкент: “Uzbekistan today”, 2015. –Б. 299-307.
2. Хива “Ичан-Қалъа” давлат музей-кўриқхонаси фонди. КП. №3989. 27-варақ.
3. Отетилеуов Қ, Худойберганов К. Хива Бекет Ота музейи. –Б. 64-65.
4. Бобоҷонов Д., Абдурасулов М. Фирдавсмонанд шаҳар. –Хива: Хоразм Маъмун Академияси нашриёти. 2008. –Б. 43.
5. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. –Тошкент: 2012. –Б. 119.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-КИСМ**

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович  
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович  
Саҳифаловчи: Шахрам Файзисев**

Эълон қилиш муддати: 30.11.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Tel: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000